| | | |
|---|---|---|
| O‘zbekiston Respublikasi MCHJ shaklidagi “AUDIT-HISOB MARKAZI” auditorlik tashkiloti | AUDIT-HISOB MARKAZI AUDITORLIK TASHKILOTI | Республика Узбекистан АО в форме ООО “AUDIT-HISOB MARKAZI” |
| O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ruxsatnomasiga ega bo’lgan Auditorlik tashkilotlari reestriga kirgan. | | Включён в реестр аудиторских организаций, имеющих разрешение Министерство финансов Республики Узбекистан |

**«Minora qurish ekspeditsiyasi» AJ aksiyadorlariga**

**«Minora qurish ekspeditsiyasi» AJ (STIR: 200 697 734) ning 2023 yil moliyaviy hisobotlrini xalqaro audit standartlari talablariga muvofiq audit tekshiruvidan o‘tkazish yuzasidan**

# MUSTAQIL AUDITOR XULOSASI

**Auditor fikri**

Biz korxonaning quyidagi moliyaviy hisobotlari va u bilan bog‘liq axborotlar auditini o‘tkazdik:

- yuqorida ko‘rsatilgan sanalarda tuzilgan “Buxgalteriya balansi”;
- ko‘rsatilgan sanalarda tugagan yil uchun tuzilgan “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot”;
- hisob siyosati ahamiyatli qoidalarining qisqacha tavsifi va boshqa izohlovchi ma'lumotlar.

Bizning fikrimizcha, ilova qilingan moliyaviy hisobotlar «Minora qurish ekspeditsiyasi» Ajning 2023 yil 1 yanvardan 2023 yil 31 dekabrgacha bo‘lgan davrda moliyaviy holatini, ko‘rsatilgan sanalarda tugagan yil mobaynidagi uning moliyaviy natijalarini aks ettirgan.

**Izohli fikr bildirish uchun asos**

Biz auditni Auditning Xalqaro Standartlariga muvofiq o‘tkazdik. Ushbu standartlar moliyaviy hisobotlar jiddiy buzib ko‘rsatishlarga ega emasligiga etarli darajadagi ishonchga ega bo‘lishni ta'minlovchi auditorlik tekshiruvini rejalashtirishni va o‘tkazishni taqozo etadi. Jamiyatning 2023 yilgi balansida ishchi-xodimlarning ish haqi bo‘yicha jamiyatdan qarzdorligi hamda muddati o‘tgan debetor va kreditor qarzdorliklar aks ettirilmagan.

Mazkur standartlarga ko‘ra bizning majburiyatlarimiz “Moliyaviy hisobot auditi uchun auditorning mas'uliyati” nomli bo‘limda bayon qilingan. Biz audit jarayonida olgan auditorlik dalillarini o‘z fikrimizni bildirishda asos sifatida tayanish uchun etarli deb hisoblaymiz.

**Mustaqillik**

Biz audit qilinayotgan korxonaga nisbatan buxgalterlar uchun axloq standartlari bo‘yicha Xalqaro Kengash tomonidan professional buxgalterlar uchun ishlab chiqilgan Axlok kodeksiga muvofiq va «Minora qurish ekspeditsiyasi» AJ ning moliyaviy hisobotlari auditi bo‘yicha axloqiy talablarga nisbatan mustaqil hisoblanamiz va mazkur talablar hamda Axloq kodeksiga tegishli boshqa majburiyatlarni bajardik.

**Muhimlik**

O‘tkazilgan auditorlik tekshiruvi ko‘lamini aniqlashga muhimlik darajasini qo‘llash o‘z ta'sirini ko‘rsatgan. Audit tekshirilayotgan moliyaviy hisobot muhim buzib ko‘rsatishlarga ega emasligi yuzasidan oqilona ishonch hosil qilishga yo‘naltirilgan.

Muhim buzib ko‘rsatishlar korxona xodimlarining faoliyat davomida amalga oshirgan noqonuniy harakatlari va xatoliklari natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Muhimlik darajasini aniqlashda biz xalqaro amaliyotda qo‘llanilayotgan uslubiyotga asoslangan va auditor hisobotiga ilova qilingan hisob-kitobni amalga oshirdik va korxonaning 2023 yil moliyaviy hisobotlari bo‘yicha uning muhimlik darajasini balans valyutasiga nisbatan 5,0 % miqdorida belgiladik.

**Auditning muhim savollari**

Auditning muhim savollari - bular bizning professional mulohazamizga ko‘ra joriy davr uchun tuzilgan moliyaviy hisobotlar bo‘yicha muhim ahamiyatga ega bo‘lgan savollardir. Mazkur yo‘nalishda biz e'tiborimizni korxonaning aktivlari, majburiyatlari, xususiy kapitali, daromadlari, xarajatlari, soliq to‘lovlari, sof foydasi va uning ishlatilishini o‘rganishga qaratdik va auditor hisobotida bu borada o‘z fikrimizni bildirdik.

**Boshqa axborot**

Auditni o‘tkazish jarayonida tekshirilgan moliyaviy hisobotlar o‘rtasida muhim ziddiyatlar bor yo‘qligini aniqlash va korxonada qonunchilikka rioya qilinishini o‘rganish maqsadida boshqa moliyaviy hamda nomoliyaviy ma'lumotlar bilan tanishib chiqildi va ular bilan moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari o‘rtasida muhim ziddiyatlar mavjud emasligiga ishonch hosil qilindi.

Korxona faoliyatini boshqarish va moliyaviy hisobot uchun rahbar shaxslarning mas'uliyati

Korxona rahbariyati mazkur moliyaviy hisobotni Buxgalteriya hisobining milliy standartlariga muvofiq tayyorlash va haqqoniy taqdim etish, shuningdek, firibgarlik yoki xato tufayli yuzaga kelgan muhim buzib ko‘rsatishlardan holi moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun zarur deb hisoblaydigan ichki nazorat tizimini ta'minlash uchun javobgar bo‘ladi.

Boshqaruv yuklatilgan shaxslar moliyaviy hisobotni tuzish jarayonida korxona yaqin kelajakda o‘z faoliyatini uzluksiz davom ettira olishi qobiliyatini baholashi, tegishli holatlarda uzluksiz faoliyatga tegishli ma'lumotlarni ochib berishi uchun mas'ul hisoblanadilar.

Bunda korxonani tugatish, uning faoliyatini to‘xtatish yoki bu harakatlarni amalga oshirmaslikning boshqacha echimi topilmagan holatlar bundan mustasno.

**Moliyaviy hisobot auditi uchun auditorning mas'uliyati**

Bizning maqsadimiz audit qilinayotgan moliyaviy hisobot nojo‘ya harakatlar va xatolar ta'siridagi muhim buzib ko‘rsatishlardan holi ekanligiga oqilona ishonch hosil qilish va o‘z fikrimiz bayon etilgan auditorlik xulosasini e'lon qilishdan iborat.

Oqilona ishonch ishonchning yuqori darajasi bo‘lsa-da, AXSlariga muvofiq o‘tkazilgan audit moliyaviy hisobotda mavjud bo‘lgan muhim buzib ko‘rsatishlarni barchasini aniqlash imkonini bermaydi.

Buzib ko‘rsatishlar alohida yoki jamlama holda mazkur moliyaviy hisobot asosida foydalanuvchilarni iqtisodiy qaror qabul qilishlariga ta'sir ko‘rsatsa, nojo‘ya harakatlar natijasi deb qaraladi va muhim bo‘lib hisoblanadi.

Auditorlik tekshiruvini o‘tkazishning barcha jarayonlarida biz AXS ga muvofiq professional mulohazani qo‘llagan va professional skeptisizmni saqlagan holda harakat qildik.

Auditorlik tekshiruvi jarayonida biz quyidagilarni bajardik:

- korxona masul shaxslarining nomaqbul harakatlari va xatolari tasirida moliyaviy hisobotda buzib kursatishlarning mavjudligi riski darajasi aniqlandi;
- audit taomillarini belgilash maqsadida korxonadagi ichki nazorat tizimi to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lindi;
- korxonaning hisob siyosati o‘rganib chiqildi va uni korxona faoliyatiga mos kelish darajasiga baho berildi;
- korxona faoliyatining uzluksizligi borasida rahbar shaxslar bergan baholarning haqiqatga mos kelishi to‘g‘risida xulosa qilindi;
- tekshirilayotgan moliyaviy hisobot bo‘yicha fikr bildirish uchun etarli auditorlik dalillarining yig‘ilganlik darajasi o‘rganildi.
- moliyaviy hisobot, uning tarkibi va mazmuni to‘g‘risida olingan ma'lumotlarga umumiy baho berildi hamda uning haqqoniy taqdim qilinganlik darajasiga fikr bildirildi.

Bundan tashqari auditorlik yozma axborotida korxona rahbariyatiga korxonadagi mavjud hisob va nazorat tizimini yanada takomillashtirish borasidagi tavsiyalarimizni bayon qildik va korxona moliyaviy holati tahlili bo‘yicha amalga oshirgan hisob kitoblarimizni taqdim etdik.

4.03.2024 yil

(imzo)

**Ergasheva Z.E.**
**MCHJ «AUDIT-HISOBMARKAZI» AT**
**bosh direktori, auditor**

STIR: 203 798 660
O‘zbekiston. Qarshi sh, I.Karimov 212/65 uy